Materiallar to’plami · Conference Proceedings
QATAG‘ON QURBONLARI: TARIXIY XOTIRA, MILLIY O‘ZLIK VA MA’NAVIY MEROS
10 September – 10 October 2026
UDK 94

QATAG‘ON QURBONLARI XOTIRASI VA TARIXIY ADOLAT

Dilfuza Baxromali qizi Qushnazarova*
Farg‘ona shaxar 41-maktab internat o‘qituvchisi
✉ baxromalimovlonov19596082@gmail.com

ANNOTATSIYA

Aniqlangan manbalarning ishonchliligi, qatag‘on qurbonlari xotirasi, qurbon shaxsiga hurmat, merosdan foydalanish imkoniyati va huquqiy tafakkurning rivojlanishi bilan bog‘liq munosabatlar maqolaning maqsadi xisoblanadi. Maqolada qatag‘on qurbonlari bilan bog‘liq munosabatlarning dolzarbligi, reablitatsiya, amnistiya va afv etish tushunchalarini farqli xususiyatlari, qatag‘on, tarixiy xotira, tarixiy adolat, milliy o‘zlik, inson qadri, va shu borada oxirgi yillarda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan huquqiy isloxatlar taxlil qilinadi.

Kalit so‘zlar

reabilitatsiya, amnistiya, avf, qatag‘on, tarixiy xotira, tarixiy adolat, siyosiy qatagon, milliy o‘zlik, ma’naviy meros, inson qadri, huquqiy ong va huquqiy madaniyat, ma’rifat.

DOI: 10.5281/zenodo.23279418

KIRISH

Bugungi kunda O‘zbekistonda davlat darajasida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar tufayli tarixiy adolat qaror topmoqda, shahid ketgan ajdodlarimizning pok nomlari oqlanib, ularning xotirasi abadiylashtirilmoqda. O‘zbekistonning mustamlakachilik davri tarixi turli bosqichlardagi shafqatsiz qatag‘onlarga to‘ladir. Jumladan; 1. 1920-yillardagi Ilk Tazyiqlar va Ocharchilik: - Sho‘rolar hokimiyati o‘lkada o‘z hukmronligini o‘rnatgan ilk yillardanoq milliy istiqlol g‘oyasi bilan yozib-chizgan, yurt mustaqilligi uchun kurashgan kuchlarni jismonan yo‘q qilishga kirishdi. Bu davrda xalqning o‘z erki va dinini himoya qilish yo‘lidagi intilishlari «bosmachilik» tamg‘asi ostida shafqatsizlarcha bostirildi. Sun’iy ravishda uyushtirilgan ocharchiliklar va iqtisodiy tazyiqlar natijasida minglab vatandoshlarimiz halok bo‘ldi yoki o‘z yurtini tark etishga majbur bo‘ldi. 2. 1930-yillar: «Katta Qirg‘in» va Ziyolilarning Qatl Etilishi: - Qatag‘on siyosatining eng yuqori cho‘qqisi 1937–1938 yillarga — «Katta qirg‘in» (Bolshoy terror) davriga to‘g‘ri keladi. Bu davrda qatag‘on tig‘i birinchi navbatda millatning eng ilg‘or qatlami — jadid ma’rifatparvarlariga, siyosiy arboblarga, yozuvchi va shoirlarga qaratildi. Ma’lumotlarga ko‘ra, 1937–1953 yillarda O‘zbekistonda 100 mingdan ziyod inson qatag‘on qilingan. Ulardan 13 ming nafari qatl etilgan (otib tashlangan). Bu shunchaki raqamlar emas, bu — millatning kesilib tashlangan eng aqlli boshllari, barbod etilgan genofondi edi. 3. «Quloqlashtirish» va Ommaviy Surgunlar: - Faqatgina ziyolilar emas, balki yurtning ko‘zi ochiq, mehnatkash dehqonlari, boy-badavlat xonadonlari ham nishonga olindi. «Kuloq» sifatida mulki musodara qilingan minglab oilalar sovuq va olis o‘lkalarga — Ukraina, Sibir va Shimoliy Qozog‘iston vayronalariga surgun qilindi, ularning aksariyati yo‘llarda va mashaqqatli mehnat lagerlarida halok bo‘ldi

4. Ikkinchi Jahon Urushidan So‘nggi Muhit va 1980-yillardagi «Paxta Ishi» - Qatag‘on ikkinchi jahon urushidan keyin ham to‘xtamadi. Urushdan qaytgan ayrim ziyolilar, asirlikka tushib qolgan begunoh askarlar «vatanga xiyonat»da ayblandi. Xalqimiz boshiga kelgan oxirgi yirik siyosiy tazyiq esa 1980-yillardagi «Paxta ishi» va «O‘zbeklar ishi» nomli uydirma tergov harakatlari bo‘ldi. Bu kampaniya doirasida O‘zbekistonning 40 ming nafar aholisi tergovga jalb qilinib, 5000 ga yaqini asossiz ravishda jinoiy javobgarlikka tortildi, butun

bir xalqning nomiga qora loy chaplashga harakat qilindi. 5. Jadidchilik Harakati: Millatning Porloq Iqboli Uchun Fido Aytganlar: - Mahmudxo‘ja Behbudiy: «Haq olinur, berilmas!» shiori ostida millatning siyosiy va huquqiy ongini yuksaltirishga harakat qildi. Abdulla Qodiriy: O‘zbek romanchiligining asoschisi sifatida xalqning tarixiy xotirasini uyg‘otdi. Uning «O‘tkan kunlar» romanidagi g‘oyalar sho‘ro mafkurasi uchun xavfli deb topildi. Abdulhamid Cho‘lpon: «Ko‘z oching, Turon eli!» deya yurtdoshlarini erk va ozodlikka chorladi. Uning she’riyati milliy ozodlik ruhi bilan yo‘g‘rilgan edi. Abdurauf Fitrat: Ilmiy va falsafiy asarlari orqali Turkistonning mustaqillik konsepsiyasini ishlab chiqdi. Bu ulug‘ siymolar mustabid tuzum tomonidan «millatchilik», «panturkizm» va «aksilinqilobiy faoliyat» kabi soxta ayblovlar bilan otib tashlandi. Biroq ularning g‘oyalari o‘lmadi va yillar o‘tib O‘zbekistonning davlat mustaqilligiga asos bo‘lib xizmat qildi.

Yangi O‘zbekiston Konstitutsiyaning 12-moddasi fikrlar va mafkuralar xilma-xilligini belgilaydi; 13-modda inson va uning ajralmas huquqlarini oliy qadriyat deb e’tirof etadi. 26-modda sha’n va qadr-qimmat daxlsizligi hamda qiynoq taqiqlanishini, 27-modda erkinlik va shaxsiy daxlsizlik kafolatlarini mustahkamlaydi. 28-modda aybsizlik prezumpsiyasini belgilab, shaxsning sudlanganligi qarindoshlari huquqlarini cheklashga asos bo‘lmasligini ham nazarda tutadi. Qatag‘on qurbonlari merosini o‘rganish va ularni huquqiy jihatdan oqlash ishlari tizimli asoslarga ko‘ra amalga oshirildi va oshirilmoqda. Reabilitatsiya tarixiy adolatning yuridik ifodasi sifatida shaxsga nisbatan asossiz jinoiy ta’qib oqibatlarini bartaraf etishga xizmat qiladi. Jinoyat-protsessual kodeksining 83-moddasida jinoiy hodisa yuz bermagani, qilmishda jinoyat tarkibi mavjud emasligi yoki shaxsning jinoyatga daxli yo‘qligi reabilitatsiya asoslari sifatida belgilangan. Amnistiya va avf o‘z-o‘zidan shaxsning aybsizligini belgilamaydi; reabilitatsiyada esa asossiz ta’qibni bartaraf etish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega omillar atroflicha taxlil qilinganidan sung xulosa qilinadi. Qatag‘on qurboni haqida «kechirildi» degan ibora o‘rniga tegishli sud hujjatiga muvofiq «oqlandi» yoki «reabilitatsiya qilindi» deyish tarixiy va huquqiy aniqlikni ta’minlaydi. Qatag‘on saboqlari kasbiy vijdon, mustaqil huquqiy fikr va har bir insonning himoya huquqiga hurmatni tarbiyalashga xizmat qiladi. Shunday yondashuv reabilitatsiyani faqat o‘tmishga doir jarayon emas, bugungi huquqiy madaniyat uchun ham ma’rifiy manba sifatida anglash imkonini beradi. Bu jarayon Prezidentning 2020 yil 8 oktabrdagi tegishli farmoyishi hamda 2024 yil 19 iyuldagi «Siyosiy qatag‘on qurboni bo‘lgan yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyatini o‘rganish, targ‘ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish to‘g‘risida»gi PQ-270-sonli qarori asosida yangi bosqichga ko‘tarildi. Mazkur hujjatlarga muvofiq, respublika ishchi guruhi tashkil etilib, ilgari maxfiy hisoblangan arxiv hujjatlarini o‘rganish imkoniyati kengaytirildi. Davlat rahbarining tashabbusi bilan Bosh prokuratura tomonidan taqdim etilayotgan kassatsiya protestlari asosida Oliy sudning Jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov xayati doimiy ravishda ochiq sud majlislarini o‘tkazib kelmoqda: Keyingi yillarda sovet davrida siyosiy qatag‘on qilingan 1 236 nafar vatandoshimiz rasman reabilitatsiya qilindi va oqlandi. 2024 yil 6 maydagi ochiq sud majlislarida 1930–1938 yillarda soxta ayblovlar bilan jazolangan 198 nafar shaxs (ba’zi manbalarda 205 nafar) oqlandi. O‘rta Osiyo va Qozog‘iston birlashgan davlat siyosiy boshqarmasi qoshidagi «Uchlik» kengashlari tomonidan «aksilinqilobiy harakatlar» va «bosmachilikka ko‘maklashish» kabi soxta ayblovlar bilan qatag‘on qilingan shaxslarga nisbatan 2026 yil 6 may kuni Oliy sud tomonidan 8 ta jinoyat ishi bo‘yicha 161 nafar shaxsga nisbatan oqlov hukmi chiqarildi. Sud qaroriga ko‘ra, ushbu shaxslarning barchasi

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 83-moddasiga (Reabilitatsiya uchun asoslar) asosan pok nomlari tiklangan holda to‘liq oqlandi.

Mamlakatimizda har yili oktabr oyining birinchi haftasi «Siyosiy qatag‘on qurbonlarini yod etish haftaligi» sifatida nishonlanishi belgilandi. Ko‘p jildli kitob nashr etiladi: Qatag‘on qurbonlarining nomlarini jamlagan «Qatag‘on qurbonlari» nomli ko‘p jildli xotira kitobi chop etiladi. «Jadidlar.uz» platformasi rivojlantiriladi: Milliy istiqlol uchun kurashgan jadidlar va qatag‘on qurbonlari haqidagi ma’lumotlar bazasini boyitish maqsadida internet platformasi yangilanadi. Uy-joylarga esdalik lavhalari o‘rnatiladi: Qatag‘on qurbonlari yashagan va faoliyat yuritgan xonadonlar hamda joylarda xotira taxtalari o‘rnatilishi ko‘zda tutilgan. Mahalliy va xorijiy arxivlarda saqlanayotgan hujjatlar, noyob suratlar hamda guvohlarning xotiralarini to‘plash uchun maxsus ilmiy ekspeditsiyalar va ishchi guruhlar tashkil etiladi.

Qatag‘on qurbonlarini yod etish va ularning merosini o‘rganish shunchaki o‘tmishni qo‘msash emas, balki milliy o‘zlikni anglash va bugungi tinch, osoyishta hamda mustaqil kunlarning qadriga yetish demakdir.

Ajdodlarimiz orzu qilgan ozod Vatanda yashayotgan ekanmiz, ularning porloq xotirasini asrash, nomlarini sharaflash va tarixiy adolatni oxirigacha qaror toptirish barchamizning fuqarolik va insoniy burchimizdir. Qatag‘on qurbonlarining huquqiy jihatdan oqlanishi shunchaki tarixiy fakt emas, balki amaldagi davlat siyosatining qonun ustuvorligi va inson huquqlarini himoya qilishga sodiqligini ko‘rsatuvchi oliy mezondir. Nohaq ayblangan ota-bobolarimizning nomlarini tiklash sohasidagi qonunchilik mexanizmlarini yanada takomillashtirish va arxivlarni tadqiq etish kelajak avlod oldidagi insoniy burchimizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 8 oktabrdagi «Qatag‘on qurbonlarining merosini yanada chuqur o‘rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi F-5599-son Farmoyishi.

Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: «O‘zbekiston» nashriyoti, 2021. – 464 b.

Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – Toshkent: «Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi» nashriyoti, 2020.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi va Sudlov hay’atlarining siyosiy qatag‘on qurbonlarini reabilitatsiya qilish (oqlash) to‘g‘risidagi ajrimlari va rasmiy materiallari (2021–2026 yy. ma’lumotlari).

O‘zbekiston Milliy arxivi (O‘zMA) fondlari:

R-86-fond (Turkiston ASSR Xalq Komissarlari Soveti hujjatlari).

R-94-fond (O‘zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi hujjatlari).

O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati (DXX) Markaziy arxivi (sobiq KGB arxiv materiallari):

A.Qodiriy, A.Cho‘lpon, A.Fitrat va boshqa jadid namoyandalariga oid tergov va qatl bayonnomalari (№... tergov ishlari to‘plami).

O‘zbekiston Ichki ishlar vazirligi (IIV) Markaziy arxivi:

1930-1950 yillarda «quloq» sifatida surgun qilingan shaxslarning shaxsiy hujjatlar to‘plami.